

**O‘ZBEKISTONDA TASHKILLASHTIRILGAN MEHNAT  
MIGRATSIYASINING RIVOJLANISHI**

**Xursanov Sadridin Mo‘min o‘g‘li,**

*Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universiteti Geografiya va geoaxborot tizimlari  
fakulteti Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya kafedrası doktoranti  
Toshkent. Elektron pochta: [sxursanov@gmail.com](mailto:sxursanov@gmail.com)*

**Jo‘rayeva Shaxlo Abdurayimovna,**

*Denov tumani 2-sonli ixtisoslashtirilgan maktab-internatining  
geografiya fani o‘qituvchisi  
Denov. Elektron pochta: [shahlojoyrayeva40@gmail.com](mailto:shahlojoyrayeva40@gmail.com)*

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.15170655>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O‘zbekiston aholisi tashqi migratsiyasida tashkillashtirilgan holda amalga oshirilayotgan mehnat migratsiyasining yillar davomida rivojlanib borishi tahlil etilgan. So‘ngi yillarda mamlakatimiz aholisi ham tashqi migratsiyada xususan mehnat migratsiyasida faol bo‘lgan mamlakatlar toifasiga kiradi va o‘z navbatida tashqi mehnat migratsiyasida mamlakat aholisining geografiyasi kengayib bormoqda. Mustaqillikning dastlabki yillarda O‘zbekiston aholisi asosan Rossiya Federatsiyasi va qisman Qozog‘istonga mehnat qilish uchun borishgan bo‘lsa bugungi kunda yangi yo‘nalishlar ochildi va bu davom etmoqda. Bunga esa qator omillar jumladan mamlakatda migratsion islohatlarning o‘rni beqiyosdir, Natijada mamlakatimiz aholisi ko‘plab xorij davlatlariga tashkillashtirilgan holda mehnat qilib kelishmoqda.

**Kalit so‘zlar:** migratsiya, migrant, tashqi migratsiya, mehnat migrantlari.

Mamlakatimiz katta miqdorda ishchi kuchiga ega bo‘lganligi bois mavjud ishchi kuchidan samarali foydalanish va ularning bandligini oshirish uchun hukumat tomonidan bir qancha qarorlar va farmonlar imzolanib amaliyotga tadbiiq etilgan. Natijada bugungi kunda mamlakat fuqorolari bir qancha xorij mamlakatlariga tashkillashtirilgan holda mehnat amaliyotlarini o‘tab kelishmoqda va bunday mamlakatlar soni yil sayin oshib borayotganligini ko‘rish mumkin va bu albatta mehnat migratsiyasini ijobiiy tomonga o‘zgarayotganligidan dalolatdir.

Mamlakat aholisi tashqi migratsiyasining rivojlanishida mamlakatimiz Prezidenti tomonidan imzolangan quyidagi 2021-yil 30-iyul, PQ-5205-son, 2020-yil 5-sentabr, PQ-4829-son, 2018-yil 5-iyul, PQ-3839-sonli qarorlarning ijrosi muhim ahamiyatga ega bo‘ldi [1,2,3]. Natijada tashqi migratsiyada tashkillashtirilgan mehnat migratsiyasini amalga oshirish va fuqarolikni rasmiylashtirish yanada takomillashtirildi.

O‘zbekiston Respublikasi milliiy statistika qo‘mitasi ma‘lumotlariga qaraganda 2010 va 2015-yillarda mamlakatimizdan tashkillashtirilgan holda asosan uchta mamlakatga mehnat migrantlari yuborilgan. Bu ko‘rsatkich 2020-yilga kelib sezilarli

# “O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUDUDLARINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING GEOGRAFIK ASOSLARI”

Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi

darajada o‘shib bunday mamlakatlar soni 14 taga yetganligini ko‘rish mumkin. 2024-yilda esa mamlakatimizdan tashkillashtirilgan holda jami 16 ta uzoq va yaqin mamlakatlarda mehnat qilib kelishmoqda. Lekin mamlakatlar va viloyatlar o‘rtasida ham tashkillashtirilgan mehnat migrantlarining soni bo‘yicha sezilarli farqlar mavjud.

**1-jadval**

## O‘zbekiston aholisi tashkillashtirilgan holda eng ko‘p mehnat qilish uchun boradigan mamlakatlar. 2024-yil. (foiz hisobida)

№	Hududlar	Koreya Respublikasi	Rossiya Federatsiyasi	Buyuk Britaniya
1	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	3	10,6	3,4
2	Andijon	12,3	7,3	5,1
3	Buxoro	1,7	6,3	2,6
4	Jizzax	7	5,2	4
5	Qashqadaryo	14,2	9,3	4,5
6	Navoiy	1,4	4,5	2,7
7	Namangan	13,2	14,5	5,3
8	Samarqand	7	6,2	25
9	Surxondaryo	15,4	5,4	2
10	Sirdaryo	2,5	4,1	5
11	Toshkent	1,8	5,7	12
12	Farg‘ona	12,8	10,4	3,4
13	Xorazm	4,7	3,6	22
14	Toshkent sh.	3	6,9	3

*Manba: O‘zbekiston Respublikasi milliy statistika qo‘mitasi*

Statistik ma‘lumotlarga qaraganda bugungi kunda O‘zbekiston fuqorolari tashkillashtirilgan holda mehnat migratsiyasini amalga oshirib kelayotgan mamlakatlar soni 2024-yil holatiga ko‘ra jami 16 ta mamlakatda mehnat qilishgan. Fuqorolarning jami soni esa 14418 kishini tashkil etadi. Bundan demak 6,2 foizi ayollar va qolgan 93,8 foizini erkaklar tashkil etadi. Tashkillashtirilgan mehnat migrantlari eng ko‘p boruvchi mamlakatlar qatoriga Rossiya Federatsiyasi, Buyuk Britaniya va Koreya Respublikasi turadi. Ushbu uch mamlakatga jami tashkillashtirilgan mehnat migrantlarining 90% foizi to‘g‘ri keladi. Mos ravishda ushbu mamlakatlarga 3080, 5342 va 4625 kishi tashkillashtirilgan holda mehnat amaliyotini o‘tab kelishmoqda. Lekin viloyatlarning ulushi turlichadir misol tariqasida olaylik Koreya respublikasiga tashrif buyuradigan mehnat migrantlarining eng qismi Surxondaryo viloyati jami Koreyaga ketuvchilarning 15,4 foizi ushbu viloyatga to‘g‘ri keladi. Bundan tashqari Farg‘ona vodiysi viloyatlari va Qashqadaryoning ham ulushi yuqori hisoblanadi. Bu ko‘rsatkichda eng pastki

# “O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUDUDLARINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING GEOGRAFIK ASOSLARI”

Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi

o‘rinlarda esa Navoiy, Toshkent va Sirdaryo viloyatlari bo‘lib mos ravishda jami Koreyaga ketuvchilarning 1,4 foiz, 1,8 foiz va 2,5 foizni tashkil etadi. Tashkillashtirilgan holda mehnat qilish uchun mamlakatimiz fuqarolari eng ko‘p boradigan mamlakatlardan yana bir bu Rossiya Federatsiyasi hisoblanadi. Ushbu mamlakatga O‘zbekiston aholisining juda katta qismi mehnat qilish uchun tashrif buyursada bularning juda ozchilligi tashkillashtirilgan holda amalga oshiriladi. Milliy statistika qomitasi ma‘lumotlariga qaraganda 2024-yilda Rossiya federatsiyasida mamlakatimizning 1 mln 146 ming aholisi mehnat qilmoqda[6]. Tashkillashtirilgan holda mehnat qiluvchilar jami Rossiyaga ketuvchilarning hatto bir foizni ham tashkil etmaydi 2024-yilda ushbu raqam 0,5 foizni tashkil etadi. Ko‘rinib turibdiki ushbu raqam juda kichik, fikrimizcha tashkillashtirilgan holda mehnat qiluvchilarning ulushini ko‘paytirish kerak. Milliy statistika qo‘mitasi ma‘lumotlariga ko‘ra 2024-yil tashkillashtirilgan holda Rossiya Federatsiyasiga mehnat qilish uchun ketuvchilarning eng qismi Namangan viloyatiga to‘g‘ri keladi 14,6 foizni tashkil etadi. Keyingi o‘rinlarda Qoraqalpog‘iston respublikasi va Farg‘ona viloyatiga to‘g‘ri keladi mos ravishda 10,6 foiz, 10,4 foizni tashkil etadi. Eng kam ulushga ega viloyat esa Xorazm hamda Sirdaryo viloyatlari bo‘lib mos ravishda 3,6 foiz va 4,1 foizni tashkil etadi.

So‘ngi yillarda mamlakatimizda migratsiya sohasida amalga oshirilgan islohatlar natijasida mamlakatimiz aholisi Yevropa mamlakatlariga ham tashkillashtirilgan holda mehnat qilishlari uchun sharoitlar yaratilmoqda. 2024-yil hisobi bo‘yicha tashkillashtirilgan holda mehnat qiluvchilar soni bo‘yicha Buyuk Britaniya ham yetakchi mamlakatlar qatoriga kirdi. Ushbu mamlakatga 2024-yilda jami 4625 kishi tashkillashtirilgan holda mehnat qilib kelishmoqda va ko‘rsatkich bo‘yicha Rossiyadan keyingi o‘rinda turadi. Buyuk Britaniyada tashkillashtirilgan holda mehnat qiluvchilar soniga ko‘ra mamlakatimizda Samarqand jami mehnat migrantlarining 25 foizi va Xorazm 22 foiz viloyatlari yaqqol ajralib turadi. Eng kam ko‘rsatkichga ega viloyatlar esa Surxondaryo va Navoiy viloyatlari hisoblanadi. Mos ravishda ushbu viloyatlarga jami Buyuk Britaniyaga mehnat qilish uchun ketayotganlarning 2 va 2,7 foizi to‘g‘ri keladi.

Ma‘lumotlarga ko‘ra tashkillashtirilgan mehnat migrantlarining mehnat faoliyatlari migrantlarning borayotgan mamlakatlari kesimida ham farqlarga ega. Jumladan, Rossiya Federatsiyasiga borayotgan migrantlarimiz asosan qurilishda, Koreya respublikasida esa sanoatda, Buyuk Britaniyada qishloq xo‘jaligida va Boltiqbo‘yi mamlakatlarida esa asosan transport va aloqada band hisoblanadi.

Xulosa o‘rnida aytish joizki mamlakatimiz aholisi tashqi migratsiya jarayonlari rivojlanishda davom etmoqda. Bugungi kunda mamlakat mehnat migrantlari 30 ga yaqin mamlakatda, tashkillashtirilgan holda esa 16 ta mamlakatda mehnat qilib

# “O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUDUDLARINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING GEOGRAFIK ASOSLARI”

Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi

kelishmoqda. Natijada mamlakatimizga mehnat migrantlari tomonidan keladigan valyuta miqdori ham o‘shib bormoqda. Shu bilan birgalikda aytish joizki mamlakat mehnat migrantlari uchun yangi yo‘nalishlar paydo bo‘lmoqda.

## Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-iyuldagi PQ-5205-sonli qarori
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 15-sentabrdagi PQ-4829-sonli qarori
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyul, PQ-3839-sonli qarori
4. Imomova.N.A. O‘zbekistonda ishchi kuchi migratsiyasi shakillanishining o‘ziga xos xududiy xususiyatlari va muommolari. ILMIY AXBOROTNOMA IQTISODIYOT 2020-yil, 2-son.
5. Tojiyeva Z.N., Xursanov S.M., Pardayev N.S., MIGRATSIYA JARAYONI TURLARINING TASNIFI. O‘zbekiston Geografiya jamiyati axboroti 66-jild, 2024-yil.
6. O‘zbekiston migratsiya ma’lumotlari bo‘shliqlarini tahlil qilish Toshkent-2024.
7. <https://stat.uz/uz/>